
ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

4
2024



ISSN 2181-6833

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

4-son (2024-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2024

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2024, № 4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jumaev Rustam G’aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 4, 2024

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:
Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc)00
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент
Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 4, 2024

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Doc. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Doc. Akmal M. Nazarov
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Layli B. Navruz-zade

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	*Mavzu*	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	***АКРАМОВА Феруза Акмаловна***	Необходимость проведения психологической службы для проблемных семей и её основные аспекты	5
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	***Adizova Nigora Baxtiyorovna***	Zamonaviy ta’limda divergent idrok nazariyasining psixopedagogik tahlillari masalasi	9
3.	***Alimova Gulmira Kabuljanovna***	Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun individual ta’lim rejasining o‘rni va ahamiyati	13
4.	***Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi***	Raqamli texnologiyalardan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari	18
5.	***Khamdamova Nozima Mukimovna***	Texnologiya mashg‘ulotlarini steam yondashuvi asosida tashkil etish imkoniyatlari	21
6.	***Madaminov Uktam Ataxanovich***	Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni mobil texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi	26
7.	***Meliqo‘ziyev Dadaqo‘zi Jo‘raqo‘ziyevich***	Pisa xalqaro baholash dasturida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash topshiriqlarining metodologik tahlili	30
8.	***QODIROV Ikrom Davronovich***	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida tarix darslarini samarali tashkil qilish usullari	34
9.	***САМАРОВА Шохиста Рабиджановна***	Педагог фаолияти самарадорлигининг шахслилик детерминантлари	39
10.	***ТОЖИБОЕВ Марат Нормадович***	Индивидуал ёндашув асосида талабалар педагогик тафаккурини ривожлантириш масалалари	44
11.	***ASRAYEV Zafar Rizakulovich***	O‘quv jarayonida virtual laboratoriya imkoniyatlaridan foydalanish	49
12.	***RAXMATOVA Feruza Abulqosimovna***	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning dinamik tizimi	53
13.	***SAFAROVA Nigora Nasilloyevna***	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	57
14.	***SHADIYEV Feruz Djaxonovich***	Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yinlar orqali nutqiy rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillar	61
15.	***SHARIFOVA Mahliyo Zarif qizi***	Talabalarda o'z ustida mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari	65
16.	***SHOMIRZAEV Maxmatmurod Xuramovich***	O‘quvchi-yoshlar ta’lim va tarbiyasida hamkorlikda o‘qitishning afzalliklari	70
17.	***SAFAROV Dilmurod Xalimovich***	Maktab direktorlarining ish faoliyatida nizoli holatlarni kelib chiqish omillarini o‘rganish	74
18.	***Tirkasheva Mavluda Akram qizi***	Oila ajralishining oldini olish diagnostikasi muammosining tadqiq etilishi	79
19.	***Ulug’ova Shahlola Musliddinovna***	Tadbirkor shaxsining psixologik xususiyatlari	83
20.	***Urinova Sharofat Axtamovna***	Klinik tafakkur va uni takomillashtirish yo‘llari	88
21.	***Авулхаиров Фирдавсий Ўткир ўғли***	Оилада соғлом турмуш тарзи психологиясини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик муаммолари	92
22.	***БАФАЕВ Мухиддин***	Толерантликнинг назарий-методологик ва	96

	Мухаммадович	концептуал асослари	
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM			
23.	***NE’MATOV Bo‘ritosh Saydullayevich***	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirishning ahamiyati va zaruriyati	101
24.	***KAKHOROVA Tursinoy Ulugbek kizi***	Peculiarities of using digital technologies in teaching english in medical institutions	105
25.	***MO‘MINOV Sulton Akbar o‘g‘li***	O‘zbekistonda maktabgacha va maktab ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim	109
26.	***ORIPOVA Munisa***	Badiiy tarbiya o’quv mashg’ulotlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	112
FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH			
27.	***IMINAKHUNOVA Iroda Xuseinovna***	A professionally-oriented approach to teaching english at a medical university	116
28.	***KAKHOROVA Tursinoy Ulugbek kizi***	Peculiarities of using digital technologies in teaching english in medical institutions	120
29.	***ХУДАЙБЕРДИЕВА Дильфуза Мухтаровна***	Преподавание русского языка в нефилологических вузах	124
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH			
30.	***QODIROV Abbos***	Biologiya fanlarini masofaviy ta’lim sharoitida o‘qitish	129
31.	***АРЗИҚУЛОВ Зайниддин Қўзибоевич***	Физикани таълим турлари алоқадорлигида ўқитиш технологиялари	135
32.	***ДАВУРОВ Камол Набиевич***	Умумий ўрта таълим мактабларида “информатика” фанини ўқитишнинг янги ташкилий шаклларидан фойдаланиш	139
33.	***ДАВУРОВА Нигина Жангабай қизи***	Кимё фани бўйича масалалар ечиш талабалар билиш фаолиятини ривожлантириш воситаси сифатида	144
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT			
34.	***Mo‘minov Feruzjon Ilxomovich***	Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik davrini modellashtish	147
35.	***SAFOYEV Hasan Aminovich, MAMUROV Baxrom Baxshulloyevich***	Basketbol sport o‘yinlari mashg‘ulotlarini tashkil etish va uni o‘tkazish metodikasi	151
SAN’AT1			
36.	***SAMIYEVA Shaxnoz Xikmatovna, ASLANOVA Nargiza Xikmatovna***	Xalq amaliy bezak san’atini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	156
IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA			
37.	***PINYOZOV Ikromjon Hakimboyevich***	Talabalarning iqtisodiy bilimlarni shakillantirish orqali ularda tadbirkorlik qobiliyatini ruvojlantirishning noan’anaviy usullari	161
TA’LIM MENEJMENTI			
38.	***ИСАКОВА Нозина Шердоровна***	Умумтаълим мактаблари раҳбарларининг индивидуал ёндашув асосида бошқарув компетентлигини ривожлантириш – педагогик муаммо сифатида	165
39.	***НАЗАРОВА Сурайё Жаббор қизи***	Умумтаълим мактабларида таълимни бошқариш ва қўллаб-қувватлаш технологиясини ривожлантириш	169
MA’NAVIYAT VA TARBIYA			

40.	***ALIMOVA Shamsiya Raximovna***	Talabalarning ma’naviyatini rivojlantirishda xalq pedagogikasining o’rni	174
41.	***ASATOVA Barfiya Faxridinovna***	Boshlang’ih sinflarda o`tkazilayotgan tadbirlarning ahamiyati va ularni takomillashtirish metodikasi	178
42.	***GULBOYEv Akbar To’xtayevich***	Art-pedagogik yondashuv asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarini estetik tarbiyalash	182
43.	***UMAROVA Iqboloy Akbutaevna***	Milliy qadriyatlarimizda mehr va saxovat tushunchalarining aks etishi	186
44.	***КИЯМОВ Нишон Содиқович***	Мусиқа санъатида тарбия масалалари	190
PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI			
45.	***BARNOYEVA Zarina Sayfiddinovna***	Imom g‘azzoliy asarlarida pedagogik qarashlar hamda nafs tarbiyasi masalasi	194
46.	***САЛОХОВ Акмал Қамариддинович***	Аҳмад донишнинг таълим-тарбияга оид қарашлари	198

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KREATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Ne’matov Bo‘ritosh Saydullayevich,
Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi o’qituvchisi

Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirishning mazmun-mohiyati, afazallligi, ahamiyati va zaruriyati yoritilgan. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili bayon qilingan. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi ijodkor bo’lishi, ijodiy fikrlashi va buni o’quvchilariga ham o’rgatishi zarur. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ta’lim-tarbiyaning muqobil samarali usullarini ishlab chiqish, o‘quvchi va o‘qituvchilarning dunyoqarashini rivojlantirishga pedagogik jamoaning barcha a’zolari orasida o‘zaro ishonchga, do‘stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatish kabi vazifalar birma-bir aytib o’tilgan. O’qituvchining kreativligini oshirish usullari hamda metodlari izohlangan. Maqolada keltirilgan ma’lumotlar doirasida boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirish modeli keltirilgan.

Kalit so’zlar: *O'qituvchi, boshlang'ich sinf, o'quvchi, kreativ, faoliyat, takomillashtirish, pedagog, mahorat, qobiliyat, muammo, shaxs.*

ЗНАЧИМОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В данной статье раскрыты сущность, значение, важность и необходимость совершенствования творческой деятельности учителей начальных классов. Описан анализ научных исследований, проведенных в этом направлении. Учителю начальных классов необходимо быть творческим, творчески мыслить и учить этому своих учеников. Среди задач выделяются разработка альтернативных и эффективных методов обучения учителей начальных классов, развитие мировоззрения учащихся и учителей, установление отношений, основанных на взаимном доверии, дружбе, сотрудничестве между всеми членами педагогического коллектива. Объясняются пути и методы повышения творческих способностей учителя. В рамках представленной в статье информации представлена модель совершенствования творческой деятельности учителей начальных классов.

Ключевые слова: *Учитель, работяга, ученик, творческий, деятельность, дети, педагог, навык, мастерство, проблема, человек.*

THE SIGNIFICANCE AND NECESSITY OF IMPROVING CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY CLASS TEACHERS

This article describes the essence, importance, importance and necessity of improving the creative activity of primary school teachers. The analysis of scientific research conducted in this regard is described. It is necessary for a primary school teacher to be creative, to think creatively and to teach this to his students. Development of alternative and effective methods of education for primary school teachers, development of the worldview of students and teachers, establishment of relationships based on mutual trust, friendship, cooperation among all members of the pedagogical team tasks are mentioned one by one. The ways and methods of increasing the teacher's creativity are explained. Within the framework of the information presented in the article, a model for improving the creative activity of primary school teachers is presented

Key words: *Teacher, elementary, student, creative, activity, improvement, pedagogue, skill, ability, problem, person.*

Mavzuning dolzarbligi. Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a’zolarining kreativ faollik darajasi e’tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 -yilgacha belgilangan xalqaro

ta’lim kontsepsiyasida “bilimning mustahkam poydevoriga ega bo‘lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish” dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.[8] Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan Xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchilliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a’zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat’iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

Dunyo amaliyotida har qanday o‘zgarishlarga ijodiy yondosha oladigan, mavjud muammolarni noan’anaviy va samarali hal qila oladigan insonlarni tarbiyalash, shuningdek, jamiyatning o‘sib borayotgan ehtiyojlari, jadal rivojlanish sur’ati va natijada mutaxassislarni tez o‘zgaruvchan sharoitlarda hayotga tayyorlash zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb masalalar yechimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. AQSH, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlarda bo‘lajak mutaxassislarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan zamonaviy shaxsga xos fazilatlar majmui ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish jarayonida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi oldiga pedagogik mahoratini, kreativ salohiyatini va faoliyatini sifat jihatdan yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi talablarni qo‘ymoqda. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarali va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik xissini kuchaytirish, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlar ilmiy va tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilab olingan

Shu nuqtai nazaridan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ faoliyatini rivojlantirishning umumkasbiy kompetentsiyalar tizimidagi o‘rni va rolini ochib berish, kreativ faoliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonga nisbatan ijodiy fikrlash va texnologik yondashuvlarni joriy etish, kreativ faoliyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda texnologiyasini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi. Shunday ekan, biz fikr yuritmoqchi bo’lgan mavzu hozirda O’zbekiston sharoitida dolzarbligi bilan muhimdir.

Asosiy qism. O‘qituvchilarning jamiyatda tutgan o‘rni ularni oliy ta’lim tizimida tayyorlash hamda kasbiy mahoratini, faoliyatini, kompetentliligini, kreativ faoliyatini takomillashtirish jarayoni bilan bog‘liq muammolar jahon davlatlari olimlari tomonidan turli davrlarda o‘rganildi va olib borilgan ilmiy ishlarida yoritildi.

Keyingi paytlarda pedagogikada kreativlik va pedagogik kreativlik tushunchalarning moxiyati xar tomonlama o‘rganilib, zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishni taqozo etmoqda. **Kreativlik** *(lot., ing.”create”-yaratish, creative yaratuvchi, ijodkor)* -individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati [2, 176 b.].

Yevropa pedagog va psixologlari o’rtasida ham “kreativlik”, “shaxs kreativ salohiyati”, “kreativ (ijodiy) faoliyat”, “ijodiy fikrlash” tushunchalari juda ko’p tortishuvlarga sabab bo’lgan muammolardan biridir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri o’qituvchi va o’quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, deb ko’rsatiladi.

Shaxs kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi. P.Torrens fikricha, “Kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi:

- muammoga doir ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanligini bildiradi [3, 184 b.].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida mutaxassis kadrlarning kasbiy mahorati, kreativ faoliyati darajasini tahlil qilish, o‘rganish va baholashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tasarrufidagi attestatsiya va akkreditatsiya markazi yetakchi mutaxassis xodimlari hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Xalq ta’limi vazirliklari mutaxassislarining amaliy ishlari, bu sohani davlat buyurtmasi sifatida rivojlanishiga bevosita yordam ko‘rsatayotganligini takidlash joiz.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, mahorati, kreativlik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarni lozim deb topish mumkin:

A) ta’lim-tarbiya ishining aniq maqsadga yo‘naltirilganligini, ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda uning mazmunini to‘g‘ri tanlanganligini aniqlash;

B) kasbiy mahoratni hamda kreativlik faoliyatni o‘rganish natijasi sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo‘nalishlarini yoritish;

V) boshalng‘ich sinf o‘qituvchilarida ta’lim-tarbiyaning muqobil samarali usullarini ishlab chiqish, o‘quvchi va o‘qituvchilarning dunyo qarashini rivojlantirishga pedagogik jamoaning barcha a’zolari orasida o‘zaro ishonchga, do‘stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari intilish kabi vazifalarni aniqlashga e’tibor berish zarur [1].

Odatda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o‘z-o‘zidan kreativ bo‘lib qolmaydi. Uning kreativlik faoliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib - o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik faoliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil takomillashtirib boriladi.[5. 44-48]


Kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansa-da, biroq bu holat bolalarning kelgusida kreativ yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu kreativ ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi [4].

Ularga o‘qituvchi va maktab ma’muriyati tomonidan uyushtiriladigan to‘garaklar, olimpiadalar, sinfdan tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulotlar ijodiy yondashishga imkon beradi.

O‘quvchilarda kreativlikni takomillashtirishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur [6, 512 b.]:

1) o‘quvchilar tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
2) o‘quvchilar mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
3) o‘quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
4) o‘quvchilarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Pedagogning kreativlik faoliyatni nazorat qilish tizimi-bu o‘zaro ta’sirlashuv va aloqadorlikda bo‘lgan, bir butun (yaxlit)likni ta’minlovchi qism (element)lar yig‘indisi. Shu bois pedagogik faoliyatni, kreativ faoliyatni nazorat qilish tizimi quyidagilarni: nazorat qilish maqsadi, nazorat qilinuvchi va nazorat qiluvchilar, nazorat jarayonida to‘plangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlash joiz (1-rasm).



1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini nazorat qilish tizimini tarkibiy qismlari

1-tekshiriluvchi (boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi), 2-nazorat maqsadi, 3-nazorat mazmuni, 4-pedagogik nazorat jarayoni, 5-nazorat shakli, usul, vositalar i, 6-tekshiruvchi.


Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini nazorat qilishga tizimli yondashuv mazkur faoliyatni nazorat qilish ob’ekti yaxlitligini ochib berishga, uning aloqalari, turlari, tiplarini aniqlashga imkon beradi. Maboda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini nazorat qilishning yaxlit tizimi komponentlaridan birortasi o‘zgarsa, uni tashkil qiluvchilarning boshqa qismlari ham o‘zgaradi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini pedagogik faoliyatini nazorat qilish tizimida nazorat maqsadi o‘zgarsa, tabiiy ravishda, uni o‘tkazish uchun oldindan rejalashtirib qo‘-yilgan nazorat shakl, metod va vositalari o‘rniga mazkur maqsadni oson va tez ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan yangi nazorat shakl, metod va vositalarini tanlashga to‘g‘ri keladi; va h.k.

Oddiy xolatda, murakkab sari tashkil etiladigan metodni aniqlash o‘quvchilarga, murakkabdan oddiy holat sari muammoni hal etish o‘quvchiga qiziqarli ham tez o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladigan (deduktiv) metod hisoblanadi. Shuningdek, mahsulli metod ham o‘quvchilarga berilayotgan materiallar tushunarli, qiziquvchan, kasbga yo‘naltiruvchi, ongli ravishda o‘zlashtiruvchi metodlardan hisoblanadi. Maxsulsiz metod o‘quvchida materiallar mazmuniga, uning yechimiga yetarli darajada tushunchaga ega emasligini bildiradi.

Innovatsion metod (inglizcha innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro, yangilikni joriy etish degan yangi metod, yangi usul, yangi ixtiro, yangi vosita, yangi g‘oya va h.k.

Motivatsion metod - ta’lim tizimini va uning barcha usul, shakl, vositalarini, omillarini, tamo-yillarini ilmiy- metodik jihatdan kreativ faoliyatni takomillashtirish texnologiyalari yordamida amalga oshirishga imkon beradi.

Pedagogning kreativ faoliyatini takomillashtirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi. (2-rasm)




2-rasm. Kreativ faoliyatni aniqlashga xizmat qiluvchi metodlar

Odatda pedagoglarning kreativ qobiliyatga ega bo‘lishlari, pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatga ega bo‘lishlari uchun talabalik -yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi kreativ faoliyatga yo‘naltirilishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog kreativ faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik tavsifdagi kreativ mahsulotlarni yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur [7, 144-b.].

Kreativ faoliyat mazmunini mukammal ravishda o‘rganish, uning tuzilishi sifatlari va mohiyatini aniqlash uchun zarur bo‘lgan modelni ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi rasm orqali bilish mumkin (3-rasmga qarang).



Izoh. IK – insoniy kreativlik, OK – oilaviy kreativlik, PB – pedagogic bilimdonlik, PQ – pedagogic qobiliyat, KT – komunikativ ta’sir, MM – muloqot madaniyat, R - Relasastsiya, PKD - diontologiya, PKI -imidj.

3-rasm. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kreativ faoliyatni takomillashtirish modeli

3-rasmdan ko‘rinadiki, pedagogik faoliyatga nisbatan innovatsion yondashuv pedagogik mahoratni, bilimdonlikni, qobiliyatni va ma’naviy madaniyatni hamda muloqotni takomillashtirish orqali xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Bu esa boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ faoliyatini yanada takomillashtirishga shart-sharoit tug’diradi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini, o‘z-o‘zini faollashtirish o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchanligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativ faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Pedagogning kreativlik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ faoliyati negizida har bir mutaxasisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ faoliyatini aniqlashda hozirgi zamon o‘qituvchisining raqobatbardosh kadrlar qilib shakllantirish xususida uning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablar asosida uning tashabbuskorlik, ijodkorlik va faol mutaxassis etib tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich, sinf o‘qituvchilarini ilmiy o‘quv-metodik jihatidan, kreativ faoliyatni shakl, usul va xususiyatlari o‘rganildi va amalda qo‘llash yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bosqichma-bosqich o‘rganilib, uning modeli, mazmuni, metodlari kreativ yondashuv yo‘li bilan asoslandi, uning kreativlik sifatlari, mezonlari, takomillashtirish o‘rni, samaradorligi aniqlandi takomillashtirish tamo-yillari, omillari, usullari tavsiya qilindi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish natijalari asosida quyidagi amaliy **takliflarni** berishimiz mumkin:

✓ O‘qituvchining pedagogik faoliyatini o‘z-o‘zini nazorat qilishda uning mehnatini kreativ faoliyati orqali bilimdonligini, kasbga nisbatan munosabatini, sifatini va samaradorligi uchun uning axloqiy majburiyati va mas’uliyatini inobatga olish.

✓ O‘qituvchining, pedagogik mahorati, kreativ faoliyatini aniqlashda mezonlar, takliflar va metodlarni ishlab chiqish.

✓ O‘qituvchilarda kreativ salohiyatini ishlab chiqish ularni ma’lumotga qarab, malaka oshirish va kasbga tayyorlash huludiy markazlarda alohida dasturlar ishlab chiqish.

✓ Maktablarda o‘qituvchilarni uch bosqichga bo‘lib, ularni viloyat va Respublika malaka oshirish va qayta tayyorlash huludiy markazlarga yuborib, ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan kreativ faoliyati asoslarini o‘rgatish zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 27 iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017.
2. Пузеп И.Ф. Психологические механизмы развития креативности личности: Дис. ... канд. психол. наук.- Омск, 2006.
3. Морозов А.В., Чернилевский Д.В. Креативная педагогика и психология. М. “Академический Проект”, 2004. – с.184
4. Николаева Е.И. Николаева Е.И. - Психология детского творчества: Учебний. Пособие. -М., 2010.
5. Omonova N., “Kooperativ yondashuvni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati”. “Pedagogik mahorat”. 2023-y 2-son. 44-48-b.
6. Mavlonova R.A. Pedagogika. – T.: «O‘qituvchi», 2005. 512 b.
7. Нурбекова В.Б. Роль и значение креативности в профессиональной деятельности. // Психология профессионально-образовательного пространст ва личности. Сб. науч. статей. - Екатеринбург, Рос. гос. проф. - пед. ун-т. – 2010. - С. 142-151.
8. Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action. United Nations. 2015. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.